



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 03 | pp. 327-333 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA INVESTITSION SIYOSATNING O'RNI



Asaboev Alisher Suyundikovich
O'zbekiston Respublikasi strategik
tahlil va istiqbolni belgilash oliy
maktabi mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va tutgan o'rni bayon etilgan. So'nggi yillarda investitsion salohiyatni oshirishga qaratilgan islohotlar va ularning mazmuni yoritilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari va ularni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimotining amaldagi holati tahlil qilingan. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy barqarorlik, milliy iqtisodiyot, xorijiy investitsiyalar, hududlar, moliya, strategiya, investitsion strategiya, soliq, samaradorlik, moliyaviy instrumentlar, korporativ boshqaruv.

Аннотация. В данной статье описывается значение и роль иностранных инвестиций в обеспечении стабильности национальной экономики. Особое внимание уделяется реформам, направленным на повышение инвестиционного потенциала и их содержания. Проанализировано нынешнее состояние привлечения прямых иностранных инвестиций и их распределение по отраслям экономики. Разработаны научное предложение и практические рекомендации, направленные на повышение привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику.

Ключевые слова: финансовая устойчивость, национальная экономика, иностранные инвестиции, регионы, финансы, стратегия, инвестиционная стратегия, налог, эффективность, финансовые инструменты, корпоративное управление.

Abstract This article describes the importance and role of foreign investment in ensuring the stability of the national economy. Particular attention is paid to reforms aimed at increasing investment potential and their content. The current state of attracting foreign direct investment and its distribution by economic sectors is analyzed. A scientific proposal and practical recommendations have been developed aimed at increasing the attraction of foreign investment in the national economy.

Key words: financial stability, national economy, foreign investment, regions, finance, strategy, investment strategy, tax, efficiency, financial instruments, corporate governance.

Kirish

Davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, zamonaviy texnologiyalarni amaliyotga joriy etish va qo'shimcha ish o'rinlarini yaratishda investitsiyalar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning dastlabki va keyingi yillardagi Strategiyalarida milliy iqtisodiyotga investitsiyalarni jalb qilish borasida qator ustuvor maqsadlar belgilangan. Xususan, O'zbekiston Respublikasini 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot Strategiyasida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish" [1] ustuvor maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Ta'kidlash lozimki keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shuningdek, hududlar miqyosida qo'shimcha korxonalar va ishlab chiqarish quvvatlarini yo'lga qo'yilishi natijasida qo'shimcha ish o'rinlari yaratilmoqda. Biroq bugungi kunda xalqaro geosiyosiy va tashqi muhitdagi ro'y berayotgan o'zgarishlar O'zbekiston Respublikasi singari iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlar uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bilan bog'liq muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bunday sharoitda milliy iqtisodiyotning xorijiy investitsiyalarga bo'lgan talabini minimal darajada ta'minlash, investitsiyalar jalb qilishda muqobil instrumentlardan foydalanish, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil qilish va qulay investitsion muhitni yaratish dolzarb ahamiyatga ega. Shuning uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarni amalga oshirish orqali ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish muhim hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Mamlakatlar iqtisodiyotini rivojlanishida investitsiyalarni tutgan o'рни va ahamiyati, makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda investitsiyalardan samarali foydalanishga doir qator ilmiy maktab namoyondalari va zamonaviy nazariyalar mualliflari tomonidan bir qancha tadqiqotlar olib borilgan.

Xalqaro investitsiyalar milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xorijiy investitsiyalar investitsiyalar jalb qiluvchi mamlakatlar tomonidan har tomonlama himoya qilinishi kerak. Xalqaro shartnomalarga doir investitsion shartnomalarni himoya qilinishi kelgusida boshqa qo'shimcha investorlarni jalb qilishda muhim o'rin tutadi [2]. Xalqaro investitsiya shartnomalari - bu xorijiy investorlarni qabul qiluvchi davlatning siyosat aralashuvidan himoya qilish orqali xorijiy investitsiyalarni rag'batlantirishga qaratilgan davlatlar o'rtasidagi shartnomalar. Shartnomalar odatda qabul qiluvchi mamlakatlardan investorlarga to'g'ridan-to'g'ri ekspropriatsiya qilingan taqdirda yoki shunga o'xshash ta'sir ko'rsatadigan choralar uchun kompensatsiya to'lashni talab qiladi va ular bir qator boshqa muhim qoidalarni o'z ichiga oladi. Shartnomalar, shuningdek, deyarli har doim investor-davlat nizolarini hal qilish (ISDS) mexanizmlarini

o'z ichiga oladi, bu esa xorijiy investorlarga mezbon davlat huquqiy tizimlaridan tashqarida shartnomalarning da'vo qilingan buzilishi bilan bog'liq nizolarni hal qilish imkonini beradi [3]. Xorijiy investitsiyalar nafaqat milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash balki iqtisodiyotga zamonaviy texnika va texnologiyalarni olib kirishda muhim hisoblanadi. Davlatda ma'lum bir ishlab chiqarish sohasiga doir yangiliklarni kiritish uchun qo'shimcha vaqtlar talab qilishi mumkin, investitsiyalar esa bu kabi vaqtlar masalasini ijobiy yechim topishga xizmat qiladi [4].

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi eng muhim omillaridan biri uning turli sohalari va tarmoqlariga investitsiya kiritishdir. Investitsiya kiritish muammolarini tadqiq qilish doimo iqtisodiyot fanining diqqat markazida bo'lgan, chunki investitsiyalar mamlakatning umumiy iqtisodiy o'sish jarayonini belgilagan holda, korxonalar faoliyatining eng tub asoslarini qamrab olgan [5]. Investitsiya deganda, kelajakdagi natija uchun ishlab chiqarishni kengaytirish yoki qayta ta'mirlash, mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislar tayyorlash va ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga mo'ljallangan moliyaviy resurslar tushuniladi [6].

Milliy iqtisodiyotda yangi texnologik ukhadning takpop ishlab chiqapish tapkibiy tuzilmasini takomillashtirish, yuqopi texnologiyali ishlab chiqapishni pivojlantipish, bilimlapning jadal pavishda innovatsion mahsulotga aylanishini pag'batlantipishda investitsiyalarning ta'sirini ochib berish dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi, va mamlakat iqtisodiyoti tarkibiy tuzilishidagi ijobiy siljishlarga metodologik asos yaratib beradi [7]. Alohida kompaniyalar bo'yicha investitsion strategiyalarni oladigan bo'lsak, strategiya mazmunan ikkita komponentni o'z ichiga olishi mumkin: maqsadli moliyaviy strategiya va kapitaldan foydalanish bo'yicha moliyaviy strategiyasi. Ushbu strategiyalarning har biri o'z mazmuni va hususiyatlariga ega. Xususan, maqsadli moliyaviy strategiyani kompaniya bozor qiymatini oshirish strategiyasi, (mahsulot) sotuv hajmini oshirish strategiyasi, foydani maksimallashtirish strategiyasi sifatida yondashish mumkin. O'z navbatida, kapitaldan foydalanish bo'yicha moliyaviy strategiya o'z-o'zini moliyalashtirish strategiyasi va moliyaviy investitsiyalar strategiyasi sifatida qaraladi [8].

Yuqorida olimlar tomonidan berilgan ta'riflarga asoslangan holda aytish mumkinki, investitsiyalar milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bilan birga davlatning xalqaro integratsiyasini yanada takomillashtirish va iqtisodiyot tarmoqlarini zamonaviy ilm fan bilan rivojlantirish imkonini beradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida milliy iqtisodiyotni barqaroriligini ta'minlashda investitsiyalarni ahamiyatiga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar o'rganildi, xorijiy davlatlar amaliyotida investitsion siyosatni ishlab chiqishning ustuvor yo'nalishlari amaliy jihatlari tadqiq etildi, mavzuga bog'liq ko'plab nazariy adabiyotlar, empirik tadqiqotlarga tayangan holda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda nafaqat Markaziy Osiyoda balki dunyo xamjamiyatida jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. 2023- yil

yakunlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi YAIMi hajmi joriy narxlarda 1 066 569,0 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o'sdi. YaIM deflyator indeksi 2022- yildagi narxlarga nisbatan 112,2 % ni tashkil etdi. Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi YaIM umumiy hajmining 94,5 % ini tashkil etdi va 5,9 % ga o'sdi (YaIM mutlaq o'sishiga ta'siri 5,5 foiz punktni tashkil etdi). Mahsulotlarga sof soliqlarning YaIM tarkibidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etdi va 2022- yil bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi (YaIM mutlaq o'sishiga ta'siri – 0,5 f.p.) [9].

Darhaqiqat makroiqtisodiy barqarorlikka erishishda xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etib keyingi yillarda mamlakat investitsiya salohiyatini oshirishga doir qator islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Mazkur islohotlar soliq tizimidan faoliyatni litsenziyalashgacha bo'lgan sohalarni qamrab oladi. O'tgan yetti yillik davomida birgina QQS stavkasi 20 foizdan 12 foizgacha tushirilgan bo'lsa, investorlar uchun 7000 dan ziyod xom ashyo va tovarlarga import bojlari bekor qilindi (1-rasm).

QQS stavkasi 20 % dan 12 % gacha tushirildi

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida Xorijiy investorlar kengashi tashkil etildi.

Korxonalarni ro'yxatga olish jarayoni takomillashtirildi

Tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi hukumatning 500 ta funksiyasi bekor qilindi.


Investorlar uchun 7000 dan ziyod xomashyo va tovarlarga import bojlari bekor qilindi.

132 ta litsenziya va ruhsatnomalar bekor qilindi.

1-rasm. 2016-2022 yillar mobaynida investitsiyalarni takomillashtirishga doir islohotlar [10].

Buning natijasida birgina 2017-2021 yillar oralig'ida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar soni 2,7 baravarga oshib, joriy yilning 1-yanvar holatiga 13,2 mingtaga yetgan. Investitsiya kiritayotgan 50 dan ortiq mamlakatdan Xitoy, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston va Janubiy Koreya yetakchilik qilmoqda. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar ulushi asosan iqtisodiyotning sanoat (30,6%) va savdo (28,5%) sohasiga to'g'ri keladi. Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalarda rasman band aholining 6%i faoliyat yuritadi, biroq ushbu korxonalarining ishlab chiqarishdagi ulushi 15%ni, asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi esa 24%ni tashkil etadi. Bunday korxonalar mamlakatdagi jami korxonalarining 2,5%ini tashkil etishiga qaramay, 2021-yili tashqi savdo aylanmasining 19,8%i, eksport va importning mos ravishda 19,7%i va 25%i ularning hissasiga to'g'ri kelgan.


Agar 2017 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 3349 mln. dollarni va umumiy loyihalar soni 111 tani tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2022 yilning yakunlariga kelib mos ravishda 9989 mln. dollar va 981 tani tashkil etkanligini o'zi, mazkur davr mobaynida o'sish deyarli 3 barobarga yetgan (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiyotga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri chet el investitsiyalari haqida ma'lumot (mln. dollar) [11]

Xorijiy investitsiya va kreditlarning jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalardagi ulushi 53,4 % ni tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 166,7 trln. so'm o'zlashtirilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida 21,2 trln. so'm xorijiy kreditlar o'zlashtirildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar hamda O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarning jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi mos ravishda 88,7 % va 11,3 % ni tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 84,3 trln. so'm yoki jamiga nisbatan 50,6 % ni, boshqa investitsiya va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 82,4 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 49,4 % ni tashkil etdi. Xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 94,5 trln. so'mni yoki jamiga nisbatan 50,3 % ni va mos ravishda xorijiy kreditlar 93,4 trln. so'mni yoki 49,7 % ni tashkil qildi.

Agar 2017-2022 yillarda chet el to'g'ridan to'g'ri investitsiyalarni sohalar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, bunda asosiy ulushlardan ya'ni 14,9 foiz elektr, gaz bilan ta'minlash sohasiga yo'naltirilganligini qady etish mumkin. Keyingi yillarda qayta ishlash sanoatini ham rivojlanishi bilan birga ushbu sohaga kiritilgan to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar xajmi tahlil qilinayotgan davrda yuqori ulushga ega bo'lib 35,6 foizni tashkil etgan (3-rasm).



3-rasm. 2017-2022 yillardagi to'g'ridan to'g'ri chet el investitsiyalarini sohalar kesimi haqida ma'lumot [12]

2023 yilda O'zbekiston Respublikasida qayta ishlash sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar salmoqli o'zlashtirilib, 71,3 trln. so'mni yoki jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 38,0 % ini tashkil etdi. Elektr va gaz bilan ta'minlash faoliyat turida bu ko'rsatkich 37,2 trln. so'mni yoki jami xorijiy investitsiya va kreditlarning 19,8 % ini qayd etdi.

Xulosa

Xorijiy investitsiyalar milliy iqtisodiyotni barqarorligini ta'minlash bilan birga ijtimoiy masalalarni ijobiy hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga doir normativ xujjatlarni takomillashtirish orqali keyingi yillarda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish xajmi deyarli uch barobarga oshgan.

Tahlil natijalaridan ma'lumki xorijiy investitsiyalarni hududlar kesimida taqsimoti bo'yicha tafovutlarning yuqori ekanligi hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi mavjud kamchiliklardan biri sifatida e'tirof etish mumkin. Fikrimizcha bu kabi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida istiqbolda hududlarning infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarga kiritiladigan investorlar uchun qo'shimcha soliq imtiyozlarini berish, yuqori malakali xodimlarni mavjud infratuzilmani rivojlantirishga keng jalb qilish kabilarni amalga oshirish lozim.

Mamlakatda investitsion salohiyatni yanada oshirish maqsadida qimmatli qog'ozlar bozori imkoniyatlaridan foydalanishni rag'batlantirish kerak. Sir emaski, bugungi kunda mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar savdo xajmining asosiy indikatorlari bo'yicha past ulushlarni tashkil qilmoqda. Bu esa o'z navbatida portfel investitsiyalar jalb qilishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Fikrimizcha, qimmatli qog'ozlar bozorida qo'shimcha

moliyaviy instrumentlar jalb qilish va mustaqil moliyaviy-investitsion qarorlar qabul qilishdagi keng imkoniyatlarni yaratib berilishi qimmatli qog'ozlar savdo xajmini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi PF-60-son Farmoni.
2. Kai A. Konrad Large investors and permissive regulation: why environmentalists may dislike investor-state dispute settlement Eur. Econ. Rev., 98 (2017), pp. 341-353
3. Henrik Horn, Thomas Tangerås, Economics of international investment agreements, Journal of International Economics, Volume 131, 2021, 103433, ISSN 0022-1996, <https://doi.org/10.1016/j.jinteco.2021.103433>.
4. Ralph Ossa, Robert W. Staiger, Alan O. Sykes Disputes in International Investment and Trade (2020) NBER Working Paper 27012.
5. Musabekov U.J. Milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida investitsiyalarni jalb qilish tendensiyalari//Iqtisodiyot va ta'lim 2023 yil 2-son.
6. Axmedov D.K. Biznes-nastroeniya v protsesse reform. Dialog gosudarstva s biznesom opredelil puti sovershenstvovaniya investitsionnogo klimata. // Ekonomicheskoe obozrenie. № 5 (221), 2018 g. S. 80-84.
7. Xurramov A.F. Milliy iqtisodiyotning tarmoq tarkibini takomillashuviga investitsiyalarning ta'siri//Iqtisod va moliya 2022,7(155).
8. Borisova O.V. Metody otsenki riska snijeniya finansovoy ustoychivosti organizatsii // Audit i finansovyy analiz. – 2015 g. № 6 .- S.296-304.
9. Davlat statistika agentligi ma'lumotlari asosida <https://stat.uz/uz/default/press-relizlar/34336-2023-3>
10. Mualliy tomonidan tuzilgan
11. <https://gov.uz/miit/> - O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.
12. <https://stat.uz/uz/default/choraklik-natijalar/39033-2023-4> - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi.
13. Hamdamov PhD O. IMPROVING FINANCIAL RISK MANAGEMENT METHODOLOGY //International Finance and Accounting. – 2020. – T. 2020. – №. 6. – S. 2.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

